

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 4



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафазель Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич**  
доктор философии по социологическим наукам, доцент  
(Узбекистан)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr. 1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Узакова Зарина</b> КУЛЬТУРА БЕЗОПАСНОСТИ В АТОМНОЙ ЭНЕРГЕТИКЕ: СОЦИАЛЬНО-ИНЖЕНЕРНЫЙ ПОДХОД.....	4
<b>2. Ernazarov Behzod</b> MUQADDAS QADRIYATLARNING O‘ZBEK IDENTIKLIGIDAGI AHAMIYATI.....	12
<b>3. Nematova Dilfuza</b> QADIMGI SHARQDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA IJTIMOY XIMOYA MASALALARI.....	21
<b>4. Kayumov Kaxramon</b> ZAMONAVIY TARAQQIYOT SHAROITIDA KICHIK SHAHARLARNING IJTIMOY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	28
<b>5. Ibragimov Murodjon</b> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA YOSHLARNING KOMMUNIKATIV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PR NING AHAMIYATI.....	36
<b>6. Dulanboeva Oygul</b> G‘ARB VA SHARQDA IJODKOR SOTSIAL QIYOFASI HAQIDAGI TASAVVURLAR EVOLYUTSIYASI.....	43
<b>7. Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	51
<b>8. Ziyayeva Xolida</b> ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN SHAXSLARNI REABILITATSIYA QILISHING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	58
<b>9. Азизова Нодира</b> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕРЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОЛОЖЕНИЯ СЕЛЬСКИХ ЖЕНЩИН.....	64
<b>10. Nodira Alimukhammedova</b> PROBLEMS OF NATIONAL IDENTITY.....	71
<b>11. Vyatkina Yuliya, Burakanova Galiya, Axmedova Feruza</b> QOZOG‘ISTON YOSHLARINING NAMOYISHKORONA ISTE‘MOLIGA TA‘SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR.....	78
<b>12. Убайдуллаева Р.Т.</b> ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ РИСКИ МОЛОДЕЖИ.....	86

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich,**  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
huzuridagi Davlat boshqaruvi  
akademiyasi tadqiqotchisi  
e-mail: txshuhtrat65@mail.ru

### YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10473389>

#### ANNOTATSIYA

Ma'lumki, korrupsiya-mansabdor shaxsning o'z vakolatidan foydalangan holda qonunni suiiste'mol qilishi, xizmat vakolatlaridan chetga chiqishi, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, oshna-og'aynichilik, qarindosh-urug'chilik asosida ish tashkil qilib, inson huquqlariga putur yetkazishi, ayniqsa, poraxo'rlik va tamagirlik qilishi bilan jamiyatimiz uchun ijtimoiy xavflidir. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda jadal sur'atlarda olib borilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida har bir insonning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilgan va bu tizim o'tgan yillar davomida takomillashtirilib borilmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida qabul qilingan qonunlar, Prezidentimiz farmonlar va qarorlar albatta o'zining natijasini bermoqda. Shuningdek, kuni kecha qabul qilingan "O'ZBEKISTON-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida ham korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilikning roli haqida vazifalar belgilandi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, poraxo'rlik, tamagirlik belgilari, davlat boshqaruvi, dinamika, murosasiz munosabat, ijtimoiy moslashuv, qonun.

**Турдикулов Шухрат Худойкулович,**  
научный сотрудник Академии  
государственного управления при Президенте  
Республики Узбекистан  
e-mail: txshuhtrat65@mail.ru

### ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ В СФЕРЕ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

#### АННОТАЦИЯ

Известно, что коррупция – это злоупотребление должностным лицом своими полномочиями, в том числе, для уклонения от своих служебных обязанностей, организации работы на основе местничества, кумовства, ущемления прав человека, взяточничества и

растрат. Это явление опасно для общества. Поэтому борьба с коррупцией является одним из важных средств эффективной защиты прав и свобод каждого человека и обеспечения верховенства закона в условиях правовых реформ, которые быстрыми темпами проводятся в нашей стране.

В нашей республике создана комплексная система борьбы с коррупцией, и эта система совершенствуется на протяжении последних лет. Законы, указы и постановления Президента, принятые в целях своевременной и качественной реализации мер по предотвращению коррупции во всех сферах общественной и государственной жизни, безусловно, дают свои результаты. Также недавно принятый Указ №ПФ-158 о стратегии «УЗБЕКИСТАН-2030» определил задачи роли общества в борьбе с коррупцией.

**Ключевые слова:** коррупция, взяточничество, признаки взяточничества, государственное управление, динамика, непримиримость, социальное регулирование, закон.

**Turdikulov Shukhrat Khudoykulovich,**  
Researcher at the Academy  
of Public Administration under the President  
of the Republic of Uzbekistan

## PUBLIC CONTROL IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN THE NEW UZBEKISTAN

### ABSTRACT

It is known that corruption is the abuse of the law by an official who uses his powers, evades his official duties, organizes work on the basis of localism, nepotism, infringing on human rights, especially bribery and embezzlement is dangerous for society. Therefore, the fight against corruption is one of the important means of effectively protecting the rights and freedoms of every person and ensuring the rule of law in the context of legal reforms that are being carried out rapidly in our country.

Our republic has created a comprehensive anti-corruption system, and this system has been improved over the past years. Laws, decrees and resolutions of the President, adopted for the purpose of timely and high-quality implementation of measures to prevent corruption in all spheres of public and state life, certainly produce results. Also, the recently adopted Decree No. PF-158 on the strategy “UZBEKISTAN-2030” defined the tasks of the role of society in the fight against corruption.

**Key words:** corruption, bribery, signs of bribery, public administration, dynamics, intransigence, social regulation, law.

### KIRISH

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda ham nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi o‘rni va roli tobora ortib bormoqda. Bu ishlarni samarali amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorining boshqa vakillarini ham jalb qilish zarur sanaladi. Bunda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani ham e’tiborga molik.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda faollik, jonbozlik ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamiyatning taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlab o‘tganidek, “fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e’tibor markazida bo‘lib turibdi”.

E’tiborli jihati shundaki, O‘zbekistonda «Jamiyat – islohotlar tashabbuskori» tamoyili asosida olib borilayotgan sa’y-harakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ham faol ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishidan avvalgi jamoatchilik muhokamalari, rahbarlar hisobotini eshitish tizimining joriy etilishi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, axborot olish erkinligini

ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratining takomillashayotgani, rahbarlar va fuqarolar o'rtasida muloqot tizimining (onlayn va offlayn tarzda) joriy etilgani, dolzarb masalalarni ijobiy hal qilish maqsadida tuzilgan turli ishchi guruhlarida davlat tashkilotlari vakillari bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarining ham ishtirok etayotgani fikrimiz isbotidir.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari tizimli ravishda tashkil qilinib, bugungi kunda normativ-huquqiy, tashkiliy-institutsional va amaliy, ilmiy-tadqiqotlar jihatdan maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash kerakki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida aholi bilan ishlash yuzasidan ham malakali ishlar amalga oshirilib, muammoga qarshi kurashish jarayonida ularning faolligining ortib borishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul harakat rejasiga a'zo davlat sanaladi.

Shu bilan birga mamlakatimizda tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tomonidan jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmoqda.

### **ASOSIY QISM.**

Har qanday jamiyatda muammolarni ijobiy hal qilish uchun jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyatining muhim sharti, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash imkoniyatidir. Zero jamoatchilik nazorati har bir kishida mamlakat rivojiga, uning milliy yuksalishiga bevosita daxldorlik tuyg'usini kuchaytiradi. Jamoatchilik nazoratiga erishgan davlatda odamlar davlat fuqarolik xizmatchilarining noqonuniy xatti-harakatlariga va boshqa salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaydi. BMTning sobiq Bosh kotibi Kofi Annan "Korrupsiyaga qarshi kurashish murakkab vazifa.

Lekin birgalikda harakat qilsak, bu borada zafarlarga erishamiz" [1,–B. 5]- deb ta'kidlab o'tgan edi.

O'zbekiston Respublikasi yuridik ensiklopediyasida qayd etilishicha, jamoatchilik nazorati – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat[2, –B. 704].

Korrupsiya har qanday jamiyat tizimda uchraydigan xavf-xatarlardan biridir. Prezidentimiz: "Shu o'rinda biz uchun dolzarb muammo bo'lgan korrupsiya masalasiga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. O'tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korrupsiyaga doir jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytish kerak, bu – masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish. Deputat va senatorlar, mahalliy kengashlar ham bong urib, aniq sohalarni tahlil qilib, korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishlari kerak emasmi? Har bir deputat o'zining okrugidagi byudjet hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni, har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatni talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Buning uchun sizlarda yetarli vakolat ham, shijoat ham bor"[3,–B.1-3]– deb aytib o'tgan edilar.

Davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2018 yil 12 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi [4] qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 5-moddasida jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari belgilab o'tilgan:

qonuniylik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;

jamoatchilik nazorati sub'ektlarining xolisligi va beg'arazligi;

jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;

jamoatchilik nazorati sub'ektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

Ushbu prinsiplardan ko'rinib turibdiki, bu o'zi-o'zidan, korrupsiyaga qarshi kurashishning amaliy jihatlari yengillashtiradi.

Jamiyat rivojiga, mamlakat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lib, sohalar rivojiga bevosita tahdid solayotgan asosiy illat – korrupsiyadir. Shu sababli yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish, uni ildizi bilan yo'q qilish va bu boradagi huquqiy asoslarni yanada mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratishga barchamiz mas'ulmiz.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda

Bu borada 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni [5] bugungi kunda davlat organlari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini ta'minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish va natijadorligini ta'minlash davlat organlari, mansabdor shaxslarning o'z vazifalarini bajarishida mas'uliyatni kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazorati va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishda keng jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash kutilgan natijalarga erishishda muhim omil bo'ladi. Mazkur qonunning e'tiborli jihati shundaki, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, NNT, fuqarolarning va OAV kabi fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishiga doir yangi huquqiy asos va qoidalar bilan mustahkamlab qo'yildi. Unga asosan keng jamoatchilik, o'zini o'zi boshqarish organlari yoki NNT qonunga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda va qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jamoatchilik nazorati bir necha yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Birinchiidan, mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Ikkinchiidan, jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yilgan joyda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyati, turli yig'inlar, uchrashuvlar, jamoatchilik eshituvlari orqali mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotiga doir o'z qarashlari, tanqidiy fikr-mulohazalarini emin-erkin bayon qiladilar, muammolarni hal qilish, kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish yuzasidan taklif-mulohazalarini bildiradilar. Aslida mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq jamiyatning muhim bo'g'ini hisoblangan mahalla institutiga alohida e'tibor berilganining boisi ham shunda.

Jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishda OAV ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining mamlakat ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratish uchun, eng avvalo, jamiyatda axborot va so'z erkinligini ta'minlash, OAV odamlar o'z fikr-mulohazalarini emin-erkin ifoda etadigan xolis minbarga, jamiyat hayotining o'ziga xos ko'zgusiga aylanishi talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan demokratik matbuot, xolis va xalqchil faoliyat yuritib, amalda fikrlar xilma-xilligiga ya'ni milliy taraqqiyot yo'lida belgilangan maqsad-muddaoga yetishning xilma-xil yo'llarini yoritishi davr talabiga aylandi. Biz bugun dunyoning rivojlangan davlatlari safidan mustahkam o'rin olayotgan, jahon maydoniga dadil chiqayotgan mamlakatimizda OAV xodimlari, jurnalistlar bu boradagi mas'uliyatni aslo unutmasliklari shart.

Uchinchiidan, bugungi hayot juda tezkor va shiddatli, jamoatchilik nazorati funksiyasini bajarish jurnalistlardan kasb mahoratlarini muttasil oshirib borib, mamlakat, millat va jamiyat oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalarni yanada teran idrok etishni taqozo etmoqda. Shu bois, mamlakatimizda "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi [6] qonunning 4-moddasida, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi, ular

faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish, kabi prinsiplari ko'rsatib o'tilgan.

To'rtinchidan, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishning yana bir turi mamlakat miqyosida qabul qilinayotgan qonunlar loyihasini tayyorlashda jamoatchilikning faol ishtiroki hisoblanadi. Har qanday qonunda xalq manfaatlari o'z ifodasini topishi bu boradagi tashabbuskor va faol yurtdoshlarimizning huquqiy madaniyati oshishi va milliy taraqqiyotga daxldorligi tobora oshib borayotganidan dalolat beradi.

Bu, o'z navbatida jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslari va huquqiy me'yorlarini shakllantirishda jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, fuqarolarning mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlash, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlash, kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasini izchil amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois jamoatchilik nazorati instituti erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil etishning muhim vositasidir.

Darhaqiqat, mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda. Jumladan, Konstitutsiyamizning 36-moddasida, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi deb belgilab qo'yilganligi, [7,–B.13] jamoatchilik nazorati institutiga konstitutsiyaviy-huquqiy maqom berilganligidan dalolat beradi.

O'z-o'zidan ayonki, jamiyatda mavjud bo'lgan eng dolzarb, muammo, aholini muayyan qatlamini tashvishlantirayotgan masalalarni, muammolarni hal etishni jamoatchilik nazoratisiz to'liq va mukammal tarzda amalga oshirib bo'lmaydi. Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurash, aholi bandligini ta'minlash, mahalliy davlat hokimiyati rahbarlarining qonun hujjatlariga zid ravishda ayrim soha (ta'lim, tibbiyot va h.k.) vakillarini majburiy ishlarga jalb etish kabi xalqimizni tashvishga solayotgan, mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti, ma'naviyati va aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan sohalar ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shart. Binobarin jamoatchilik nazorati davlat organlarini qonunga rioya etib, o'z vazifa va majburiyatlarini mas'uliyat bilan to'liq ijro etishga majburlaydi.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo'nalishlarini, qonun ustuvorligi hamda sud-huquq sohasini yanada isloh qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishning bevosita tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi mexanizmlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli "O'ZBEKISTON–2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonida [8] muhim vazifalar sifatida belgilandi. Ushbu strategiyada:

- davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish, davlat organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash amaliyotini yo'lga qo'yish;

- xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish;

- erkin fuqarolik jamiyatini va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, O'zbekistonni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha xabga aylantirish, ommaviy axborot vositalarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirib, ularning professional faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning kafolatli ta'minlash, ijtimoiy sheriklikda amalga oshiriladigan loyihalar sonini kamida 3

baravarga ko‘paytirish, davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat-tashkilotlari sonini kamida 80 taga yetkazish;

- korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish, davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish, 100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta‘minlash kabi maqsadlar va 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilandi.

Rahbar va ularning o‘rinbosarlari faoliyatini jamoatchilik fikri asosida baholash – bu davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy faoliyatining samaradorligini baholash vositasi bo‘lib, unda baholovchi ekspertlar fuqarolik jamiyati instituti vakillari va fuqarolarning vakillari hisoblanadi. Bu amaliyot, albatta rahbar xodimlarning noqonuniy faoliyatining chek qo‘yilishiga zamin bo‘ladi.

Ommaviy axborot vositalari vakillarining erkinligini, davlat idoralarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini ta‘minlash, hamda, rahbarlarning kundalik faoliyatida jurnalistlar bilan yaqin aloqa va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Natijada, amaldorlarning har bir harakati jamoatchilikni ko‘z o‘ngida amalga oshiriladigan bo‘ladi. Ya‘ni ochiqlik va shaffoflik ta‘minlana boshlaydi. Ochiqlik va oshkoralik hukmronlik qilgan joyda, korrupsion harakatlar qilish imkoniyati yanada qiyinlashadi.

Davlat xaridlarini jamoatchilik orqali nazorat qilish, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishning eng samarali vositasi bo‘lgan ochiqlik, oshkoralik tamoyillarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda bugungi zamonaviy taraqqiyot sharoitida “O‘ZBEKISTON–2030” strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan tub islohotlar zahirida inson qadr qimmatini va uning manfaatlar, huquq va erkinliklari kafolati turibdi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda har bir mamlakatimiz fuqarosi qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat‘iy nazar korrupsiyaga qarshi kurashishi va uni oldini olish uchun Prezidentimizga kamarbasta bo‘lishi shart.

Bizningcha, korrupsiyaga qarshi kurashishda sohaga oid qonun hujjatlari ijrosini ta‘minlashda davlat organlari bilan NNT va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda, huquqiy targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish orqali aholida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirishga erishish lozim.

Binobarin, jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitga salbiy ta‘sir o‘tkazadigan, taraqqiyotimizga to‘siq, milliy xavfsizligimizga tahdid soluvchi korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish va jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashga barchamiz birdek mas‘ulmiz.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun huquqiy asoslar korrupsiyaning oldi olinishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsata oladigan ishonchli mexanizmdir.

#### **XULOSA.**

Xulosa o‘rnida aytganda, korrupsiyaning har qanday turiga qarshi kurashishda davlat fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ish yuritishi maqsadga muvofiq. Buning bir qancha afzal tomonlari bo‘lib, u muayyan ko‘rinish va mexanizmlarda o‘z aksini topgan. Xususan, sohada olib borilayotgan davlat siyosatini monitoring qilib borishda nodavlat notijorat tashkilotlarning ham o‘rni va roli yuqori. Zero, monitoring yuritish orqali mas‘ul rahbarlarda javobgarlik hissining oshishiga, ularning omma oldida muntazam hisobot berib borishiga erishiladi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat organlarining xalqqa hisob berib borish tizimining takomillashishiga, shuningdek, aholining fikrini doimiy eshitib borish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”. – Nyu-York, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, 2004. – 5 bet.
2. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. – T.: “Adolat”, 2009. – 704 bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent. “Xalq so‘zi”, 2022 y. 1-3 betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonuni O‘RQ-1062-son. – Toshkent. 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi to‘g‘risida qonuni O‘RQ-419-son. – Toshkent. 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” qonuni O‘RQ-369-son. – Toshkent. 2014.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent. – “O‘zbekiston”. 2023. – 13 bet.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-158-son. Toshkent. – “O‘zbekiston”. 2023.
9. Matibaev T.B. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: «Korrupsiya – ijtimoiy xavf». Darslik. – Toshkent. 2019.
10. “Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga tahdid” risola / Sh. Turdiqulov. – Toshkent 2019. – 32 b.
11. Turdikulov Sh.X «Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi» Monografiya. –Toshkent: «Bilim va intellektual salohiyat», 2022. – B.65.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 6, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 6, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000